


Termiz shahrida “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.

Image not found or type unknown



Termiz shahrida “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida

ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Termiz shahar "Farxod" MFYdagi 11-sonli umumta'lim maktabida joriy yilning 29 may kuni Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida mahallalar aholisi, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda "A.Jomiy", "Amu sohillari", "Jo'yjanganl", "Majnuntol", "Ma'rifat", "Nurli kelajak", "Pattakesar", "Surxon sohili" hamda "Eski shahar" mahallalarining fuqarolari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari, akademik litsey va umumta'lim maktablarining bitiruvchi o'quvchilari, xalq orasida hurmat qozongan san'atkorlar va hamkor tashkilotlar, 4-sektor vakillari, OAV xodimlari ishtirok etishdi.

Tadbir jarayonida san'atkorlar tomonidan badiiy chiqishlar namoyish etildi.

Shuningdek, san'atkorlar tomonidan ijro etilgan she'rlar va kuy-qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

